



B.B. Boltayev 1998-1999 yillarda BUXOO va EST Institutining O'zbekiston tarixi kafedrasida o'qituvchisi, 2000-2003 yillarda BDU O'zbekiston tarixi kafedrasida huzuridagi 07.00.01 yo'nalishi bo'yicha asperanturani tugatgan.

2000 yildan boshlab BuxDU Tarix kafedrasining o'qituvchisi hamda 2005 yildan Tarix-geografiya fakulteti dekanining o'quv ishlari bo'yicha muovini, 2010 yildan esa BuxDU Tarix kafedrasida to'liq shtatda o'qituvchisi sifatida faoliyat ko'rsatib kelgan. 2013 yildan boshlab kafedraning katta o'qituvchisi lavozimida O'zbekiston tarixi, muzeyshunoslik, tarixiy o'lkashunoslik fanlaridan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar olib bormoqda.

ISBN 978-9943-4710-5-4



9 789943 471054

26.89
588



B.B. Boltayev

TARIXIY O'LKASHUNOSLIK



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

"BUXORO MEROSI" ILMIY TADQIQOT MARKAZI

B.Boltayev

TARIXIY O'LKASHUNOSLIK

fanidan uslubiy- qo'llanma

Buxoro Davlat universiteti bakalavriat
5120300 Tarix ta'lim yo'nalishi talabalari uchun
5320300 Arxivshunoslik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun

"Dardona" nashriyoti
Buxoro, 2016

26.89

Б 83

Болтаев, Б.

Тарихий ўлкашunoslik: uslubiy qo'llanma / Б. Болтаев. - Бухоро :
Садриддин Салим Бухорий, 2016. - 56 б.

КБК 26.89

Mas'ul muharrir

H.To'rayev, tarix fanlari doktori

Taqrizchilar:

S.S. Raupov, tarix fanlar nomzodi, dotsent

Y.A Shukrullayev, tarix fanlar nomzodi, dotsent

*Махфий тадқиқот "Бухоро вилоятида ёшларнинг маданий мерос
соҳасидаги билимларини ошириш" мавзусидаги Ўзбекистон
Республикаси Олий Мажлиси ҳузуридаги ННТ ва фуқаролик
жамиятининг бошқа институтларини қўллаб-қувватлаш жамоат
фондиниш гранти доирасида (2015-2016 йиллар) наشرга тайёрланди.*

*Uslubiy-qo'llanma "Tarix" kafedrasi va Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti
majlisida muhokama qilingan bo'lib nashrga tavsiya etilgan.
(Kafedra va fakultet majlisining 2016 yil 29 avgust №1 sonli
bayonnomasi)*



**Tarixiy O'lkashunoslik fanidan (bakalavr yo'nalishi uchun)
o'quv - uslubiy qo'llanmasiga**

ANNOTATSIYA

Tarixiy O'lkashunoslik fanidan (bakalavr yo'nalishi uchun) uslubiy-qollanma ma'ruzalar mavzulari matni, savol-javob topshiriqlari va mantiqiy savollar jamlanmasidan iborat. Uslubiy qo'llanmada mavzular matni alohida o'rinni egallaydi xronologik jihatdan O'zbekistonning ibtidoiy jamoa tarixidan to hozirgi kungacha bo'lgan katta davmi o'z ichiga oladi. O'zbek davlatchilik tarixi, O'zbekiston hududidagi etnik jarayonlar, ijtimoiy va madaniy tarix masalalarini ochib berishga katta e'tibor berilgan. Yurtimizdagi qadimiy odamzod yashagan manzilgohlar, ularni o'rganishda, xorijiy hamda o'zbek olimlarining hamkorlikdagi faoliyati O'zbek xalqining urf-odatlarini, an'analari avloddan-avlodga o'tishi, o'lka tarixini yoritishda ulardan tegishli xulosalar chiqarish va obyektiv baho berish lozimligi ochib berilgan. O'zbekistonda Etnografiya, Toponimika, Arxeologiya, Arxivshunoslik-Muzeyshunoslik, kabi fanlarning taraqqiyoti ush bu qo'llanmada keng yoritilgan.

Temuriyla davri, O'zbek xonliklari tarixi, chor Rossiyasi iste'losi, sho'ro tuzimining mustamlakachilik siyosatining mohiyati kabi masalalarga ham qo'llanmada keng o'rin ajratilgan. O'zbekistonning mustaqillik davri tarixi qo'llanmadagi eng dolzarb masalalaridan biri sifatidan batafsil yoritib berilgan. Har bir mavzuni ochib berishda yangi darsliklardan hamda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlaridan iqtiboslar keltirilgan. Mustaqillik sharofati bilan o'zbek millatining boy an'anaviy qadriyatlarining tiklanishi, kelajakda O'zbekistonning turizm sohasidan juda katta taraqqiyot va yutuqqa erishish imkoniyatlari betakror tabiati va mehnatkash xalqi borligi bilan yosh avlodni Vatanga hurmat uni ko'z qorqchig'iday asrash kerakligi ruhida tarbiyalash qo'llanmada eng asosiy vazifa qilib qo'yilgan va biz o'ylaymizki bunga erishilgan.

*Ushbu uslubiy- qo'llanma O'zbekiston Respublikasi
mustaqilligining 25 yilligiga bag'ishlanadi*

KIRISH

Tarixni o'lkashunosliksiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu boisdan tarixni o'rganish va o'rgatish uchun tarixiy o'lkashunoslikning salmog'i benihoyat kattadir. Turli sharoitlarda va davrlarda O'lkashunoslik taraqqiy qilib keldi. Hozirgi kecha – kunduzda tarixni o'lka tarixisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Har bir davmi tahlil qilishda o'lkashunoslikdan keng foydalaniladi va mustaqillik sharofati bilan tarixni bilish o'z o'lka tarixini bilishdan boshlanishi isbotlandi, hamda barcha Oliy dargohlarda Tarix fakul'teti huzurida O'lkashunoslik kurslari va to'garaklari faoliyat boshladi. Bu fanga (2-kurs tarix yo'nalishi talabalari uchun) 24 soat ma'ruza, 34 soat seminar, 60 soat mustaqil ish jami 118 soat ajratilgan bo'lib, (2-kurs arxivshunoslik yo'nalishi talabalari uchun)) 20 soat ma'ruza, 34 soat seminar, 38 soat mustaqil ish jami 92 soat ajratilgan bo'lib qadim zamonlardan hozirgi kecha – kunduzgacha tarixiy voqealar bayon qilinadi.

Fanni o'qitish maqsad va vazifalari. Fanni o'tishdan maqsad. Tarixiy o'lkashunoslikni chuqur o'rgatish. Tarixiy voqea va hodisalarga xolischa baho berish, bo'lib o'tgan hodisalarni davr nuqtai nazaridan to'g'ri tahlil qilish.

Fanning vazifalari. Tarixiy o'lkashunoslikning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi o'zaro munosabati haqida talabalarda taassurotlar shakllantirish, yangi chop etilgan o'lkashunoslikka doir ilmiy jurnallardagi maqolalarni tahlil qilish. Nashr qilingan yangi zamonaviy adabiyotlar bilan ishlash va tahlil qilishga o'rgatish.

Fanni o'zlashtirishda qo'yilgan umumiy talablar. Ma'ruzalarda ishtirok etish. Maxsus ma'ruzalarni yozib borish. Qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish yangi topilgan yozma manbalar to'g'risida ilmiy jumallarda chop etilayotgan maqola va axborotlarni kuzatib borish.

Fanga ajratilgan o'quv soatlarining o'quv ishlari bo'yicha taqsimot. Tarix yo'nalishi talabalari uchun fanni o'rganish uchun 118 soat ajratilgan bo'lib, shundan 58 soat auditoriya mashg'ulotlari. 24 soat ma'ruza, 34 soat seminar va 60 soat mustaqil ish. Arxivshunoslik yo'nalishi talabalari uchun fanni o'rganishga 92 soat ajratilgan bo'lib, shundan 54 soat auditoriya mashg'ulotlari. 20 soat ma'ruza, 34 soat seminar va 38 soat mustaqil ish.

1-Mavzu: Tarixiy o'lkashunoslik kursining predmeti. Tarixiy o'lkashunoslikning vazjudga kelishi va rivojlanishi.

Peja:

1. Kirish.

2. O'lkashunoslik turlari.

3. O'lkashunoslikning rivojlanish marixi.

Tarixiy o'lkashunoslikning oliy o'quv yurtlari tarix fakul'tetlariga maxsus kurs sifatida kiritilishi bu fanga e'tiborning kuchayib borayotganligidan dalolat beradi.

Jamiyat qurilishining hozirgi bosqichida tarixiy o'lkashunoslikning roli va ahamiyati beqiyos oshib bormoqda. O'zbekiston fuqarolarini axloqiy va estetik tarbiyalash, ularni madaniy sa'yiasini oshirish, ma'naviy boyliklarini ko'paytirish va ulardan keng foydalanish haqida g'amxo'rlik qilish, o'lka tarixi hamda unga bo'lgan munosabatlarga ko'p jihatidan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham O'zbekiston fuqarolarining O'zbekiston hududida joylashgan madaniy yodgorliklariga chtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, asrab-avayashlari ta'kidlab o'tilgan.

O'lkashunoslik kursi O'zbekiston tarixini, uning madaniy yodgorliklarini o'rganishning eng muhim vositalaridan biridir.

O'lkashunoslikning asosiy manbalari:

1. Tarixiy yodgorliklar.
2. Arxeologik yodgorliklar.
3. etnografik yodgorliklar.
4. Toponimik va arxiv hujjatlari.
5. Muzey materiallari.

O'zbekiston xalqlari tarixiy va madaniy yodgorliklari jahon madaniy merosining tarkibiy qismi bo'lib, mamlakatimiz xalqlarining jahon sivilizatsiyasi rivojlanishiga hissa qo'shganligidan dalolat beradi. Mana shunday tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni har tomonlana chuqur, ilmiy va amalij jihatdan o'rganadigan fan – bu o'lkashunoslikdir.

O'lkashunoslik deganda, ilmiy o'lkashunoslik, jamoat o'lkashunosligi va maktab o'lkashunosligi tushuniladi.

1. Ilmiy, ya'ni davlat o'lkashunosligi bevosita davlat ilmiy tashkilotlari, ilmiy tadqiqot institutlari, Respublika tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish va undan foydalanish, mintaqaviy maxsus muzeylar, Respublika Fanlar Akademiyasi qoshidagi tarix, arxeologiya ilmiy tadqiqot institutlari ilmiy xodimlari tomonidan tashkil etilgan respublika va viloyatlarning o'lkashunoslik muzeylari faoliyatlari tushuniladi

2. Jamoat o'lkashunosligiga xalq deputatlari viloyat va tuman ijroiya qo'mitalarining¹ bevosita rahbarligida tegishli joylardagi arxeologik, etnografik, toponimik va arxiv hujjatlari mutaxassislari faoliyati tushuniladi.

3. Maktab o'lkashunosligi-maktablarda tarix va jamiyatshunoslik o'qituvchilarining bevosita faoliyati bilan bog'liq.

Maktab o'lkashunosligi ta'lim – tarbiyani turmush bilan, ishlab chiqarish bilan uzviy bog'lashdagi eng muhim vositalardan biridir. O'qitish jarayonida o'quv materiallaridan o'rinli foydalanish o'quvchilarning o'z o'lkasining tarixini bilib olishga, mustaqil ijod qilishga bo'lgan qiziqishini o'rtiradi va kelgusi hayot yo'lini tanlab olishga yordam beradi.

Maktab o'lkashunosligi predmetlararo aloqani mustahkamlaydi.

Maktab o'lkashunosligi o'quvchilarda o'z vataniga bo'lgan cheksiz mehr – muhabbat uyg'otish bilan birga ularni estetik ruhda tarbiyalashga munosib hissa qo'shadi.

O'lkashunoslik fani o'z rivojlanish tarixida mashaqqatli va shonli yo'lni bosib o'tdi.

XIX asrning o'rtalarida Buxoro amirligining saroy tarixchisi Muhammad Yoqub yozgan «Gulshan ul – mulk» nomli asari o'sha davr tarixiy manbalardan biri hisoblanadi. Bu asar tojik tilida yozilgan bo'lib, unda qadimgi zamonlardan to XIX asrning 30 – yillarigacha bo'lgan

Buxoro amirligidagi siyosiy voqealar tarixi beriladi.

Shu davrida tojik tilida yozilgan ikkinchi yana bir manba saroy tarixchisi Muhammad Mir Olimning «*Tarixi amir Nasrullo*» nomli asaridir. Bu asar Buxoro amiri Nasrulloning topshirig'i bilan yozilgan. Asar XVIII asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligida yuz bergan siyosiy kurashlarni, ichki va tashqi voqealarni tasvirlash bilan boshlanib, amir Nasrulloning hokimiyatga kelishi, uni dastlabki yillardagi davlatni boshqarishda tutgan siyosati bilan tugaydi. Mulla Ibodulla va Mulla Shariflar tomonidan tojik tilida yaratilgan «*Tarixi amir Haydar*» nomli qo'lyozma asarda esa ashtarxoniylar bilan mang'itlar sulolasi tarixi, Amir Shohimrodning tug'ilishidan boshlab, to Amir Haydarning o'limi (1826)gacha Buxoro amirligida bo'lib o'tgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy holatlarga ham to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birga asarda 1820 yilda A.F.Negri boshliq Rossiyadan Buxoroga yuborilgan diplomatik missiya haqida ham ma'lumotlar berilgan. Muhammad Sharifning xuddi o'sha davrni aks ettiruvchi «*Toji tavorix*» (Tarixlar toji) nomli asari maydonga keladi. Asarda Chingizxon va uning avlodlari, shayboniylar, ashtarxoniylar, mang'itlar sulolasining tarixi beriladi. XIX asrning 40-yillarida yaratilgan asarlardan biri Muhammad Hakimxon to'rtinchi «*Muntaxab ul-tavorix*» nomli asaridir. Asarda XVIII asrning 70- yillaridan to'qon xoni Umarxonning vafoti (1822), undan so'ng taxtga o'tirgan Madalixongacha bo'lgan davrdagi qo'qon xonligi tarixiga doir siyosiy voqealar tasvirlangan. Qo'qon xonligi tarixiga oid manbalardan yana biri Mulla Avaz Muhammadning fors-tojik tilida yozilgan «*Tarix jahonnumai*» asari bo'lib, u o'z ko'zi bilan ko'rganlarining bayoni hamda tarixiy manbalar asosida yozilgan ikki kitob va geografik qo'shimchalardan iboratdir.

Qo'qon xonligi tarixchiligida Mulla Niyoz Muhammadning «*Tarixi Shohruhii*» degan asari ham diqqatga sazovordir. Muallifning bu asari qo'qon xonligining XVIII va XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan tarixiga oid muhim ma'lumotlarga ega bo'lib, shu davrni o'rganuvchi tadqiqotchilar uchun juda qimmatlidir.

XIX asrning I-yarmida Xiva xonligida yozilgan tarixiy manbalardan eng muhimlari Munis va Ogahiy asarlari hisoblanadi. Munis elizavxonning topshirig'i bilan o'zining «*Firdavsul iqbol*» nomli mashhur tarixiy asarini yozadi. Munis bu kitobning birinchi qismini tamomlab, ikkinchisini yozayotgan vaqtda to'satdan vafot etadi.

Muhammad Rizo Ogahiy Xiva xoni Olloqulixon topshirig'i bilan bu asarni davom ettirib, 1827 yilgacha bo'lgan voqealarni yozadi. Ogahiy bu asarni tugatganidan so'ng, «*Riyoz ud-davla*» (1826–1842 yillar), «*Zubdat ul-tavorix*» (1842–1845 yillar voqealar), «*Gulshani – davla*» (1856–1865 yillar voqealar) kabi tarixiy asarlar yaratadi. Ogahiy «*Shohidi iqbol*» nomli beshinchi asarini Xiva xoni Muhammad Rahimxon II davriga bag'ishlaydi.

O'lkani o'rganishda statistik komitetlar ham muhim rol o'ynaydi. 1868 yil yanvarida Turkiston statistika komiteti tuziladi. Komitetning tashabbusi bilan 1872 yil 1 yanvardan boshlab Sirdaryo (Toshkentda), Samarqand (Samarqandda), Farg'ona (Yangi Marg'ilonda) viloyatlari statistik komiteti bo'limlari tashkil etiladi.

O'rta Osiyo xalqlarining turmushiga bag'ishlangan ilmiy va o'lkashunoslikka doir turli xabarlar (1870 – 1917 yy.) mahalliy matbuotda muntazam bosilib turiladi. 1870 yilda Toshkentda ochilgan Turkiston xalq kutubxonasi (hozirgi A.Navoiy nomli O'zbekiston milliy davlat kutubxonasi) o'lkani o'rganish bilan shug'ullanuvchi barcha tadqiqotchilar, ayniqsa, mahalliy xodimlari statistika komiteti bo'limlariga ega bo'ldi.

Kutubxona ochilishi vaqtida 1700 jild kitob bor edi.

1917 yilga kelib undagi kitoblar soni 80 000 jildga yetdi.

1872 yilda A.L.Kun va boshqa rus sharqshunoslari mashhur «*Turkiston al'bomi*»ni tuzib tamomladilar. Al'bomda 1262 dona rangli surat va fotosuratlar yopishtirilgan bo'lib uning hajmi 447 betdan iborat.

O'lkamiz tarixiga oid eng muhim manbalardan biri hisoblangan X asr muallifi Muhammad Narsaxiyning «*Buxoro tarixi*» asari N.S.Likoshin tomonidan rus tiliga o'girilib, 1897 yilda nashr etilishi (V.V.Bartol'd tahriri ostida) juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Turkiston

ilmiy jamiyatlari o'lkani tarixini o'rganishga jiddiy sur'atda kirishdilar. 1870 yilda O'rta Osiyo olimlari ilmiy jamiyati tashkil etildi. Bu jamiyat o'z oldiga o'lkamiz tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, statistikasi, iqtisodiyotiga oid ma'lumotlarni to'plash, ishlash va tarqatishni maqsad qilib qo'ygan edi. Uning birinchi ochiq majlisi 1871 yil 28 yanvarda bo'lgan. O'lkada faoliyat yuritayotgan Turkiston arxeologiyasi havaskorlari to'garagi a'zolari tomonidan 1895 yil Farg'ona tog' tizmalaridagi Saymalitosh degan joyda toshga o'yib solingan juda ko'p suratlarni topilishi fanga muhim ilmiy kashfiyot bo'lib kirdi.

Vatanimiz tarixi va arxeologiyasi XX asr boshidan chuqurroq tekshirila boshlandi. Bunda birinchi va rahbarlik o'rnida, shubhasiz, g'oyat bilimdon olim, sharqshunos V.V. Bartol'd (1869 – 1930) turgan edi. U sharq tillarini juda yaxshi bilganidan, hamisha uning ilmiy faoliyati markazida turgan O'rta Osiyo tarixchiligi emas, shu bilan birga butun «Musulmonlar Sharqi» tarixiga ham oid juda ko'p birinchi manbalarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldi. Uning «*Turkiston mug'ullar xujumi davrida*» (1889–1900) monografiyasi O'rta Osiyo tarixini o'rganishda muhim o'rin tutadi. V.V. Bartol'dning «*Ulug'bek va uning zamoni*», «*Turkistonning sug'orilish tarixiga oid*» kabi tadqiqotlari o'z ahamiyatini yo'qotmagan asarlardir. V.V. Bartol'dda katta tashkilotchilik, ilmiy qobiliyat va salohiyat bor edi. Darhaqiqat, O'rta Osiyoning tarixi va arxeologiyasini o'rganish sohasidagi biror-bir kattaroq tadbir V.V. Bartol'dning ishtirokisiz bo'lmagan. Bartol'd o'zining 1894 yilda bosilib chiqqan «*Turkistonda arxeologik tadqiqotlar masalalariga oid*» kitobida o'lkani jiddiy ravishda o'rganish hali oldimizda turibdi, bu ishda bosh rolni maxalliy ilmiy kuchlar o'ynamog'i lozim, degan edi. Uning taklifi bilan 1895 yil oktyabr oyida Turkiston arxeologiyasi havaskorlar to'garagi va uning ustavi tasdiqlandi. Ustavda, jumladan:

1. Turkiston o'lkasining qadimgi yodgorliklarini o'rganish.
2. To'garakni faxriy va haqiqiy a'zolaridan tuzish.
3. To'garakning haqiqiy va havaskorlik a'zolariga mahalliy arxeologiya masalalari bilan qiziquvchi, unga a'zolik badallarini to'lab turuvchi har bir kishini a'zo qilish (Saylanuvchining unvoniga, kelib chiqishiga, millatiga va jinsiga qaralmaydi).
4. Haqiqiy a'zolar ichidan bir yil muddatga boshqarmani saylash.
5. Boshqarmaning to'garakdagi ishlarni olib borishini, qaysi yodgorliklarni qazib, tadqiq qilishini, mahalliy idoralar va Rossiya arxeologiya komissiyasi bilan doimiy aloqasini tashkil etish.
6. To'garakning umumiy majlislariga har bir qiziquvchi kishini jalb etish.
7. To'garakning bo'linlarini boshqa shaharlarda ham ochishga harakat qilish.
8. To'garak mablag'i haqiqiy a'zolaridan, haqiqiy bo'lmagan a'zolaridan hamda arxeologiya havaskorlari tomonidan beriladigan xayriyalardan tashkil etish belgilandi. Jumladan arxeologlardan V.P. Vyatkinning (1869–1932) amalga oshirgan ishlari diqqatga sazovordir. Bu olim 1908 yilda Samarqanddagi mashhur Ulug'bek rasadxonasi qoldiqlarini o'rganish va saqlash bilan shug'ullanadi. N.N. Veselovskiy rahbarligida Akrom Asqarov kabi havaskor tarixchi va arxeologlar etishib chiqdi. U o'zining harakatchanligi va ishqanchiligi bilan Turkistondagi fan ahllariga tanila boshlaydi. «*Turkestanstye vedomosti*» gazetasining 1892 yilda bosilib chiqqan ma'lumotlardan birida A. Asqarovning 1370 dona kumush pul, 13274 dona mis pul, acolit davriga oid tosh, bolta, yasalgan plug, jez oyna kabi turli buyumlar to'plaganligi haqida xabar beriladi. Ular orasida sopolidan yasalgan odam haykallari, bir bo'lak misriy isarg'a, baldoq, tumor, mis va sopol idish hamda shunga o'xshash tarixiy buyumlar borligi qayd etiladi. A. Asqarovning fan uchun qimmatli bo'lgan bu kolleksiyasiga o'sha davr mutaxassisi prof. N.I. Veselovskiy ham katta baho bergan edi. Oktyabr to'ntarishidan so'ng, o'lkamizda o'lkashunoslik fani ko'proq markazdan andoza olgan holda rivojlandi. Rossiyaning markaziy rayonlariga tegishli bo'lgan nashrlar ko'paydi. Vatanimiz tarixi qisman yoritildi. Mastaqillik sharofati bilan o'lkani tarixini o'rganishga yangidan e'tibor berildi. O'zbekiston tarixini o'rganish uchun mahalliy hujjatlar, matbuot, arxiv materiallari, arxeologik, toponimik, etnografik va boshqa manbalarni chuqur tadqiq etmoq zarur. Bu esa o'lkamiz tarixiga yangicha yondashishni

taqozo etadi.

Nazorat uchun savollar.

- O'lka deganda nimani tushunasiz?
2. O'lkashunoslik fani qanday vazifalarni o'z ichiga oladi?
3. O'lkashunoslik fanining asosiy manbalari nimalardan iborat?
4. O'lkashunoslik qanday turlarga bo'linadi?
5. O'lkashunoslik fani qanday rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi?
6. Akrom Asqarovning o'lka tarixini yoritishdagi asosiy vazifasi nimadan iborat edi?
7. V.V.Bartol'dning o'lka tarixini o'rganishdagi roli.
8. O'rta Osiyo olimlari jamiyati faoliyati haqida to'xtalng.
9. Turkiston arxeologiya to'garagi haqida gapirib bering.
10. Turkiston xalq kutubxonasining ochilishi qanday ahamiyatga ega bo'ldi?
11. Sobiq Ittifoq davrida o'lkashunoslik fanining markazidan andoza olgan holda rivojlanishga qanday qaraysiz?
12. O'lkani o'rganishda statistik komitetlarning roli.
13. Sobiq Ittifoq davrida o'lkashunoslikka tegishli bo'lgan ishlar nima uchun chetda qolib ketdi?
14. Ilmiy o'lkashunoslik deganda nimani tushunasiz?
15. Jamoat o'lkashunosligi deganda nimani tushunasiz?
16. O'lkashunoslikni o'rganishni tarbiyaviy ahamiyati.
17. Mustaqil O'zbekiston tashkil topgandan so'ng o'lka tarixini o'rganishga yangicha kurash.
18. Etnografik yodgorliklar.

Manba va adabiyotlar:

1. Kaimov I.A. Vatan saydagoh kabi muqaddasdir. Toshkent «O'zbekiston». 1996 y.
2. Arxivskiy A.B. «Arxeologiya asoslari». Toshkent. «O'qituvchi». 1970 y.
3. Nabiev A. «Tarixiy o'lkashunoslik». Toshkent. «O'qituvchi». 1996 yil.
4. Sa'diev A. «XIX asrda Turkistonda tarix fani». Toshkent. 1960 yil.
5. Gulonov YA. «O'zbekistonda arxeologiya». Toshkent. 1956 yil.
6. Askarov A., Al'baum L. Poselenie Kuchuktepa. Toshkent, 1970.
7. Borisovskiy A.I. Drevneyshie proshloe chelovechestva. M., Nauka, 1981).
8. Gafurov B.G. Tadjiki. t.1. Dushanbe, Irifon, 1989.
9. Kabinov J., Sagdullaev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. Toshkent, 1990.
10. Muhammadjonov A.R. Qadimgi Buxoro. Toshkent. 1991.
11. Okladnikov A.P. Paleolit i mezolit Sredney Azii. Srednyaya Aziya v poznu kamnaya i bronza. M.-L., 1966.
12. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. Toshkent, 1964.
13. Taylor J.B. Peruvobonaya kultura. Per. s angl. D.A. Koropchikovskiy. M. 1989.
14. M.U. nouova, M.O'rmonov. "Ovesto-hikmatlar manbai". 2000
15. O'zbekiston tarixi. A. Sagdullaev, B. Eshov taxriri ostida. Toshkent Universitet. 1997.
16. U. Jusev, Saidjanov Y. Dunyo dinlari tarixi. T., 1998, 65-73-butlar.
17. "Avesto". "Guliston" jurnali, 1999 yil, 4-5-6-sonlar.

2-Mavzu : O'zbekistonning geografik holati va tabiiy iqlim sharoitlari

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasining geografik o'rni va chegaralari.
2. O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi
3. Mamlakatimizning ma'muriy-hududiy bo'linishi.
4. O'zbekiston Respublikasi tabiiy sharoitining o'ziga xos xususiyatlari.
5. Mamlakatimizning suv resurslari va yer fondi.
6. Respublikaning o'simlik va hayvonot olami.

O'zbekiston Yevrosiyo materigining markazida, geografik o'rni jihatidan hududning ikki yirik daryosi bo'lmish Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan. Mamlakatimizning shimoliy chekka nuqtasi Ustyurt platosining shimoli-sharqiy qismida, ($45^{\circ}36'$ shim. kenglik), janubiy chekka nuqtasi Termiz shahrining janubida ($37^{\circ}11'$ shim. kenglik) joylashgan. G'arbiy nuqtasi Ustyurt platosining $56^{\circ}00'$ sharqiy uzoqligida, sharqiy nuqtasi Farg'ona vodiysining Qirg'iziston bilan chegaradosh qismida ($73^{\circ}10'$ sharqiy uzoqlik) joylashgan.

Tabiiy-geografik sharoiti nuqtai-nazaridan oladigan bo'lsak, O'zbekiston qator qulayliklarga ega bo'lgan mintaqalardan hisoblanadi. Respublika maydoni 448,9 ming kv. km. bo'lib u g'arbdan sharqqa 1425 km, shimoldan janubga 930 km masofaga cho'zilgan. O'zbekiston o'z maydoniga ko'ra Yevropaning Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Shveysariya, Avstriya kabi mamlakatlar maydonini qo'shib hisoblaganda ham ulardan kattalik qiladi.

Biz O'zbekistonning geografik o'rni haqida gapirishdan oldin, iqtisodiy geografik o'rin (IGO) nima ekanligini bilib olishimiz kerak. Iqtisodiy geografik o'rni iqtisodiy geografiya fanining asosiy tushunchalaridan biri (uning «kalitidir») bo'lib, uni yaxshi tahlil qila olish o'rganilayotgan ob'jektning nima uchun xuddi shu yerda joylashganligi, hozirgi holatiga qanday erishganligi hamda uning kelajagi to'g'risida mukammal va to'la ma'lumot beradi. Bu tushuncha uchun eng avvalo ob'jekt qayerda joylashganligi, (o'rni), uning boshqa qo'shni ob'yektlar bilan qanday munosabatda ekanligi muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan iqtisodiy geografik o'rin iqtisodiy geografik bilimning o'ziga xos usulidir.

Iqtisodiy geografik o'rin tushunchasini mukammal ravishda N.N.Baranskiy ishlab chiqdi va fanga kiritdi. Keyinchalik bu nazariya I.M.Mayergoyz, Yu.G.Saushkin, G.M.Lappo, T.I.Raimov va boshqa olimlar tomonidan har tomonlarga rivojlantirildi. Xo'sh iqtisodiy geografik o'rin tushunchasi nima?

Iqtisodiy geografik o'rin o'rganilayotgan ob'jekt (korxona, shahar, viloyat yoki mamlakat) ning o'z atrofida, undan tashqarida joylashgan geografik ob'yektlarga (tog', daryo, dengiz, chegara, konlar, yo'l va h.k.) nisbatan tutgan o'rnini va bu ob'yektlarni uning rivojlanishiga iqtisodiy jihatdan ta'sir ko'rsatishi demakdir.

Endi Respublikamizning iqtisodiy geografik o'rniga to'xtalsak. Har qanday hududiy birlikning iqtisodiy geografik o'rni, xususiyatlari avvalo uning qayerda joylashganligiga bog'liq. Ma'lumki, O'zbekiston Yevrosiyo materigining deyarli qoq markazida, dunyo okeanidan ancha ichkarida joylashgan. Shu sababdan O'zbekiston dengizga tutash mamlakatlarga xos barcha qulayliklardan mahrumdir.

O'zbekistonning iqtisodiy geografik o'rniga to'g'ri baho berish respublikaning hozirgi mustaqil rivojlanish pallasida alohida ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra O'zbekistonning iqtisodiy geografik o'rni xususiyatlarini uch jihatdan ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston hududining mikrogeografik o'rni-uning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan tutgan o'rnidir. O'zbekiston qadim Turon zaminida hamisha salohiyati katta davlat bo'lgan. Bu, ko'p jihatdan uning geografik o'rni (markazligi) bilan bog'liq. Yaqin o'tmish (ya'ni sho'rolar hukmronligi yillari)da ham O'rta Osiyodagi respublikalar bir-birlari bilan ijtimoiy taraqqiyotning ko'p sohalarida bog'langan edilar. Birgina transport kommunikatsiyasini olaylik. Turkmaniston faqat O'zbekiston orqali Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston bilan aloqa qilgan. Ayni paytda bu respublikalarning har biri ham Turkmaniston bilan faqat O'zbekiston orqali

akqqa qilgan. O'z navbatida, MODda buyud qilingan temir yo'llar, avtomagistralar, quvurlar bari bir-birlarini bog'lagan. Mustaqil davlatchilik qaror topgan hozirgi davrda ushbu aloqalar tarixiy omillar (ya'ni, qadimiy "Buyuk ipak yo'li" an'analariga muvofiq) asosida rivojlantirilishi O'zbekistonning mikrogeografik imkoniyatlari istiqbolini ko'rsatib turibdi.

O'zbekistonning mezagografik o'rni-uning binnuncha kengroq miqyosdagi mavqei bilan belgilanadi. Bugungi O'zbekiston jahonga yo'l ochmoqda, jahon hamjamiyatiga dadil kirib bormoqda. Uning bu qutlug' qadimida MODdan tashqari Kavkaz orti davlatlarining, Turkiyaning, Eronning, Afg'onistonning ulushi bor. Afg'oniston orqali Pokiston (va so'ngira Hind okcani)ga, Eron va Turkiya orqali Yevropaga chiqish uqlari ochilmoqda. Bu, yaqin qo'shnilarimiz bilan qadimiy aloqalarni qayta tiklashga va shu asosda mamlakatimiz mavqecini yana ham ko'tarishga xizmat qiladi.

O'zbekistonning makrogeografik o'rni-jahondagi davlatlar bilan olib borilayotgan aloqalarda belgilanadi. O'zbekistonning MDH davlatlari bilan ko'p qirrali aloqalari tarixiy haqiqat bo'lib, uning mamlakatimiz taraqqiyotidagi salohiyati juda katta. O'zbekiston ushbu makrodarajadagi aloqalarini MDHning aksariyat davlatlari bilan rivojlantirmoqda. O'zbekistonning hozirgi tashqi iqtisodiy aloqasining 15,5 foizi Rossiyaga to'g'ri kelyapti. Yevrosiyaning buyuk davlati Rossiya Federatsiyasi bilan muntazam aloqada bo'lish O'zbekistonning manfaatlariga mos keladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, har qanday hudud iqtisodiy geografik o'rniga baho berishda uning yirik transport tugenlariga, fim-texnika markazlariga nisbatan joylashganligi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Shu jihatdan olib qaraganda O'zbekistonning iqtisodiy geografik o'rni tobora yaxshilanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining geosiyosiy va geostrategik mavqei, uni yaxshilash va undan samarali foydalanish masalalari mamlakat birinchi Prezidenti I.A. Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» (T., 1997) kitobida keng yoritib berilgan.

Iqtisodiy geografik o'rin mamlakat va mintaqalar xo'jaligining tarkibiy tuzilishi, ixtisoslashuvi hamda ularning istiqbolda rivojlanish yo'llarini ham ma'lum darajada belgilab beradi. Shu bilan birga u qulay investitsiya makonini vujudga keltirishda, qo'shma korxonalar qurishda, ekin iqtisodiy mintaqalarni shakllantirishda ham muhim, ba'zan hal qiluvchi omil sifatida xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining chegaralari. Mamlakatimiz shimol va shimoli-g'arbda Qozog'iston, sharq va shimoli-sharqda Qirg'iziston, janubi-sharqda Tojikiston, g'arb va janubi-g'arbda Turkmaniston, janubda esa Afg'oniston davlatlari bilan chegaradosh. Respublikamiz davlat chegaralarining umumiy uzunligi 6221 kilometrga teng bo'lib, undan 2203 km Qozog'iston, 1621 km Turkmaniston, 1161 km Tojikiston, 1099 km Qirg'iziston va 137 kilometri Afg'oniston davlatiga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi.

Hozirgi O'zbekiston hududi 1917 yilga qadar ma'muriy jihatdan Turkiston general-gubernatorligi (Turkiston o'lkasi) hamda Rossiyaning yarim mustamlakalari bo'lmish Buxoro amirligi va Xiva xonligiga bo'lingan edi. 1918 yil 30 aprelda Sho'rolar 5-O'lka s'yezdida tashdiqlangan "Rossiya Federatsiyasining Turkiston Sovetlar Respublikasi to'g'risida Nizom"da Turkiston Respublikasining davlat tuzumi, uning hududiy chegaralari belgilanadi. 1924 yilga kelib Turkiston ASSR 6 viloyat (Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona, Zhetysay, Yettisuv, Amudaryo)ga hamda 30 uezd va 473 volostga bo'lib tashlanadi.

1920 yil aprelda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi e'lon qilindi. Mazkur respublikaning hududi 28 tumanga bo'lini. 1924 yilda esa uch viloyat (Qozog'-Qoraqalpog', Yangi Urganch, Toshhovuz) va Xiva tumaniga bo'lini.

1920 yilning 8 oktyabrida Buxoro amirligi negizida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi e'lon qilindi. Mazkur respublika hududi 15 viloyat, 58 tuman va 197 kentga bo'lini. Shunday qilib, O'rta Osiyoda 3 sotsialistik deb atalgan davlat: Turkiston ASSR, BXSr va XXSR tuzildi.

1924 yilda O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish amalga oshirildi. Qadimdan bir mintaqada yashab kelayotgan turkiy xalqlar aholisining turmush tarzi, kelib chiqishi, ma'muriy, xo'jaligi, madaniyati, musharak maqsadlari bir bo'lishiga qaramasdan shu davrda beshga bo'lib yuborildi. Turkistonni milliy jihatdan qayta chegaralash Markaz va RK(b)P O'rta Osiyo byurosi tomonidan 1924 yilda qat'iy ishlab chiqilgan edi. Unga qarshi barcha urinishlar behuda ketardi. 1924 yil 10 mart kuni birlashgan kengashda mahalliy millat vakillari O'rta Osiyo Federatsiyasini tuzish, Turkistonning yaxlitligini buzish maqsadga muvofiq emasligini ta'kidlagan edilar. Xorazm rahbarlari ham alohida fikr bildirib, Xorazmni chegaralanishga qo'shmaslik masalasini qo'ygan edilar. Biroq, ushbu istaklar ushalmagan orzuligicha qolib ketdi.

1924 yil oxirida Turkiston, Buxoro, Xorazm Respublikalari o'rta O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR (O'zbekiston SSR tarkibida), Qoraqirg'iz (Qirg'iz) viloyati (RSFSR tarkibida) va Qoraqalpog' AO (Qozog'iston ASSR tarkibida) tashkil etildi. Mazkur davrda O'zbekiston SSR maydoni 312394 kv. km. tashkil etdi. Aholisi 4447,6 ming kishi bo'lib uning 74,2 foizi o'zbeklar edi (1926 yilgi aholi ro'yxati).

1925 yilning 29 yanvaridan respublikada yagona ma'muriy bo'linish joriy qilindi. Poytaxti Samarqand shahri bo'lgan O'zSSR 7 viloyat (Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm)ga va 22 uezd hamda 241 volostga bo'lini. 1926 yilda mamlakatni ma'muriy-iqtisodiy rayonlashtirish ishlari amalga oshirildi. 1927 yilning boshida mamlakat tarkibida 10 ta okrug, 87 tuman, 1746 qishloq kengashi tashkil qilingan edi. Markazning ko'rsatmasi bilan O'zbekiston tarkibida bo'lgan Tojikiston Muxtor Respublikasi 1929 yildan sobiq SSSR tarkibidagi ittifoqdosh respublikaga aylantirildi. 1930 yil 17 avgustda mamlakatni okruglarga bo'lish bekor qilindi. Biroq, oradan ko'p o'tmay, 1932 yil 27 iyunda Xorazm okrugi, 1935 yil fevralda esa Qashqadaryo va Surxondaryo okruglari qayta tiklandi. 1936 yilda Qoraqalpog'iston ASSR RSFSRdan olinib O'zbekiston SSR tarkibiga kiritildi. Bu vaqtda kelib O'zbekiston SSR tarkibida bir avtonom respublika, 3 okrug, 109 tuman, 22 shahar, 16 shaharcha va 1392 qishloq kengashi bo'lgan.

1938 yil 14 fevraldan boshlab mamlakatimiz hududini hozirdek viloyatlarga bo'lish joriy qilindi. O'sha yili Buxoro, Samarqand Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlari tashkil qilindi. 1941 yilning 6 martida Andijon, Namangan, Surxondaryo, 1943 yilning 20 yanvarida esa Qashqadaryo viloyati tashkil topdi.

1957-1961 yillarda Markaz region istiqbolini ko'ra olmasligi oqibatida ma'muriy-hududiy birliklar yana qator o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Jumladan, Namangan viloyatining hududi Farg'ona va Andijon viloyatlariga qo'shib yuborildi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati Surxondaryoga birlashtirildi.

Mamlakatimiz hududida yangi yerlarni o'zlashtirish jarayoni uning yangidan ma'muriy-hududiy bo'linishlariga birmuncha asos yaratib berdi. Masalan, Qarshi cho'lining o'zlashtirilishi bu yerda 1964 yil 7 fevralda Qashqadaryo viloyatining qayta tiklanishiga, Mirzacho'lining o'zlashtirilishi 1963 yil 16 fevralda Sirdaryo viloyatining tashkil topishiga, Farg'ona vodiysida ishlab chiqarish kuchlarining jadal rivojlanishiga 1967 yil 18 dekabrda Namangan viloyatining qayta tiklanishiga, Jizzax cho'llarining o'zlashtirilishi 1973 yil 29 dekabrda Jizzax viloyatining tashkil qilinishiga olib keldi. 1982 yilning 20 aprelida mamlakatda kon-metallurgiya san'atini rivojlantirish natijasida Navoiy viloyati tashkil qilindi. Xullas, ana shu bo'linish mustaqillikgacha deyarli o'zgarmadi.

Mamlakatimizning ma'muriy-hududiy bo'linishi.

O'zbekistonning ma'muriy-hududiy bo'linishi mustaqillik yillarida sifat jihatidan yangi bosqichga-bozor munosabatlariga muvofiq keladigan bosqichga qadam qo'ydi. Mamlakat mustaqilligi tufayli o'zbek xalqining ariy orzusi ushaldi-O'zbekiston tinch, parlament yo'li bilan o'zining haqiqiy davlatchiligiga erishdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, sho'rolar davrida o'rnatilgan tus olgan va sho'rolar tuzumini madh etuvchi joy nomlari bekor qilinib, aholi yashaydigan joylarning tarixiy nomlari tiklanmoqda yoki yangi nomlar berilmoqda.

Mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishida umuman, milliy iqtisodiyotning

yuksalishida uning qanday ma'muriy-hududiy bo'linishlarga ajratilgani ham muhim rol o'ynaydi 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-huquqiy tizimi" deb atalgan XVI bobning 68-moddasida shunday deyilgan: "O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat". Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahridan tashkil topgan. O'z navbatida ular tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarga bo'linadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishi (2016y.)

Viloyatlar	Aholi soni, mln. kishi	Maydoni ming kv. km.	Shaharlar soni	Tumanlar soni	Shaharchalar soni	Qishloq (ovu)llar soni (QFY)
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1571,9	166,6	12	14	16	129
Andijon	2375,9	4,2	11	14	5	95
Buxoro	1525,3	40,3	11	11	2	120
Jizzax	1051,4	21,2	7	12	8	105
Qashqadaryo	2420,4	28,6	12	13	7	148
Navoiy	812,7	111,0	7	8	11	54
Namangan	2103,6	7,4	8	11	12	99
Samarqand	2907,5	16,8	11	14	7	125
Surxondaryo	1925,1	20,1	8	14	75	114
Sirdaryo	676,9	4,1	5	8	18	72
Toshkent	2468,0	15,3	16	15	10	146
Farg'ona	2878,9	6,7	9	15	7	164
Xorazm	1453,9	6,1	3	10	1	101
Toshkent shahri	2140,6	0,3	1	-	1	-
O'zbekiston Respublikasi	26312,7	448,9	120	159	113	1472

Ijtimoiy ishlab chiqarishda tabiiy resurslar muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Tabiiy surmat va tabiiy boyliklar jamiyati yoki biron-bir alohida olingan mamlakat hayotiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ular ayrim xo'jalik tarmoqlari rivojini tezlatish va aksirishda sekinlashtirishga ham olib keladi. Bu jihatdan mustaqil mamlakatimiz o'ziga xos va qulay sharoitlarga ega.

O'zbekistonning relyefi bir xil bo'lmay, uning g'arbiy va janubi-g'arbiy qismlari asosan tekisliklardan iborat. Tekisliklar mamlakat hududining qariyb uchdan ikki qismini egallab ularga Ustyurt platosining bir qismi, Qayi Amudaryo, Qizilqum qumliklari kiradi. Tog'liklar respublikaning sharqiy hamda janubi-sharqiy qismlarini egallagan. O'zbekistonning Tyanshan va Hissar-Oloy tog' tizimlari tarkibiga kiruvchi-Ugom, Pakom, Chotqol, Turkiston, Zarafshon tog'lari shimoli-g'arb va janubi-g'arb tomon asta-sekin passay boradi va tekislikdarga qo'shilib ketadi. Agroiqlim resurslari.

Respublika tabiatining o'ziga xos xususiyati-uning serquyushligidir. Mamlakatimizni "Serquyush O'zbekiston" deb mashhurlikning ramziy ma'nosi bor. Negaki, mamlakatimizda quyosh yil davomida ufqdan balandda bo'lib nur sochadi. Quyosh iyun oyida ufqdan Toshkentda 72°, Termizda 76° gacha ko'tariladi. Yozda kunduz kuni 15 soat davom etadi. Atmosfera yog'in-sochilishini keltiradigan dengiz va okean oqimlaridan juda uzoqda bo'lgan bu o'lkada bulutli kunlar tabiiy ravishda kam bo'ladi. Binobarin, uning barcha hududiga quyosh uzoq vaqtgacha

nur sochib turadi. Ziroatchilik qilinadigan barcha vodiylar va vohalarda, ko'p yillik meteorologik kuzatishlarga qaraganda, quyosh yog'dusi davomiylygi yil davomida o'rtacha 2500-3000 soat (Farg'ona vodiysi va Qashqadaryoning tog'li hududlarida 2600 soat, Toshkentda 2890 soat, Termizda 3100 soat)gacha boradi.

Yoz oylarida mamlakatimiz hududi quyosh nuriidan nihoyat ko'p energiya qabul qiladi. O'rtacha bir yilda uning har bir sm² yer yuzasiga 100-120 ming kaloriya quyosh nuri tushadi. Quyoshdan kelayotgan issiqlikning 70-80 foizi tuproq va yer yuzasi havosining isishiga sarf bo'ladi.

Eng sovuq oy-yanvarning o'rtacha havo harorati Shimoli-g'arbiy O'zbekiston (Urganch va Nukus)da -4,8°S va -6,4°S, Shimoli-sharqiy O'zbekiston (Toshkent va Guliston)da -0,9°S va -2,0°S, Sharqiy O'zbekiston (Farg'ona va Andijon)da -3,5°S va -3,0°S; Markaziy O'zbekiston (Qorako'l va Samarqand)da -0,2°S va -0,3°S va Janubiy O'zbekiston (G'uzor va Denov)da -2,3°S va -2,4°S darajaga teng. Iyul oyining o'rtacha havo harorati Urganch va Nukusda 27,5°S va 27,1°S; Toshkent va Gulistonda 26,9°S va 26,8°S, Farg'ona va Andijonda 26,8°S va 27,3°S; Qorako'l va Samarqandda 29,1°S va 26,0°S; G'uzor va Denovda 29,9°S va 28,2°S darajaga teng. Biroq, havo haroratidagi bu ko'rsatkichlar asosan mamlakatning tekislik mintaqasiga xos bo'lib, u tog'lik va baland tog'li hududlarda birmuncha farq qiladi.

Issiqlik resurslari turli xil ziroatchilikni joylashtirish, ulardan yuqori hosil olish va taqalash (irib rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan yillik havo haroratining ijobiy va foydali ko'rsatkichlari, shuningdek, sovuq bo'lmaydigan kunlar muddati amaliy ahamiyatga molikdir. Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga tayanib quyidagilarga e'tibor qaratish kerak. Mamlakatning turli geografik mintaqalarida o'rtacha havo harorati va ijobiy harorati yig'indisi keskin farq qiladi. Masalan, mamlakatning shimoliy qismida joylashgan Nukusda havo haroratining 5 darajadan yuqori ko'rsatkichlari yig'indisi 4301 darajaga teng bo'lgan holda, bu ko'rsatkich Termizda 5950 darajaga yetadi, ya'ni 1649 daraja ko'p. Mamlakatning agroiqlim ko'rsatkichlaridagi ana shu farq qishloq xo'jaligi ayniqsa, ziroatchilikni yurgizishda kuchli omil bo'lib hisoblanadi va dehqonchilik tarmoqlariga yoki uni takroriy ekishga ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda yoz fasli uzoq davom etadi, hatto, uning janubiy qismi (Surxondaryo)da, L. N. Babushkinning ta'kidlashicha, bu fasl olti oyga cho'ziladi. Yozda quyosh nuriining bevosita ta'sirida bo'lgan yer yuzasi 60 darajagacha, uning cho'llarida esa 75 darajagacha ko'tariladi. Sovuq bo'lmaydigan kunlar Shimoliy O'zbekistonda 190-210 va Janubiy O'zbekistonda 220-270 kuni tashkil qiladi. O'zbekiston yog'in-sochin kam tushadigan qurg'oqchil mintaqalar qatoriga kiradi. Buning ustiga barcha hududlarda yog'in miqdori bir tekisda emas. Respublikaning ko'pchilik hududlarida yillik yog'in miqdori 200-300 mm ni tashkil etadi. Yoyingarchilik eng kam bo'ladigan joylarga Qayi Amudaryo va Qizilqum kiradi (100 mm dan ham kam). Yog'in-sochin miqdori sharq va janubi-sharqqa borib sari ortib boradi va u tog'li hududlarga yaqinlashgan joylarda 900-950 mm ga etadi. Qishloq xo'jalik ekinlariga suv eng zarur bo'lgan paytga kelib yoyingarchilik ayniqsa kamayib ketadi va suv taqisligi boshlanadi. Respublikada hukm surayotgan suv taqisligi ayniqsa qishloq xo'jaligining rivojlantirishida katta muammolar bo'lib turibdi. Mamlakatimizning suv resurslari va yer fevdi.

